



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLIH: YANGI PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR

FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Saparova Dilshoda Adashevna

*Toyloq tuman 8-maktab
oliy toifali geografiya fani o'qituvchisi*

Ta'limni raqamlashtirish va elektron platformalarning afzalliklari

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim sohasidagi tub islohotlar, ta'lim tizimini raqamlashtirishning ahamiyati, elektron platformalar, ta'lim sifatini yaxshilash va monitoring o'tkazishda raqamlashtirishning afzalliklari, uzluksiz kasbiy platformalar, gigant elektron platformalar va ulardagi qulayliklar, umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim tizimida raqamlashtirish va raqamli dunyoda o'rganishning ahamiyati. MOOC (MOOC - massive open distance education sistem - ommaviy ochiq onlayn ta'lim tizimlari).

Kalit so'zlar: elektron kitoblar, elektron darslik, raqamli interaktiv o'quv qo'llanmalar Masofaviy ta'lim, raqamli texnologiya, raqamlashtirish, «EDU LINK» axborot tizimi, HEMIS dasturi, elektron platformalar, innovatsion platformalar, onlayn platformalar, raqamli iqtisodiyot, raqamli platformalar, raqamli transformatsiya, "Raqamli O'zbekiston – 2030", robototexnika, sun'iy ong, "super platforma"lar.

Abstract. This article discusses radical reforms in education, the importance of digitalization of the education system, electronic platforms, the advantages of digitalization in improving and monitoring the quality of education, continuous professional platforms, giant electronic platforms and their conveniences. general secondary education and higher the importance of digitalization and learning in the digital world in the education system. MOOC (MOOC - massive open distance education system - public open online education systems).

Key words: Global Internet Protocol (IP) traffic, innovative platforms, online platforma, digital economy, digital platforms, digital transformation, “Digital Uzbekistan - 2030”, robotics, artificial intelligence, “super platforms”, industry effect, transaction platforms.

Kirish:

Shiddat bilan taraqqiy etayotgan bugungi kunda zamonaviy axborot texnologiyalar, kompyuter imkoniyatlari barcha sohaga kirib keldi. Jumladan, ta’lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarning o’rni beqiyos. Ta’lim tizimida olib borilayotgan tub islohotlar; “Yangi O‘zbekiston”ni barpo etishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanib, tub burilish qilishga qaratildi. Ta’lim tizimini raqamlashtirish, masofali ta’limni shakllantirish, elektron platformalarni yaratish va ulardan foydalangan holda ta’lim sifatini yaxshilash, korrupsiyaga barham berish, ta’lim olishda qulayliklar yaratish maqsad qilib qo’yildi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF 6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida raqamli dunyoda raqamlashtirish jarayonini takomillashtirishga e’tibor qaratildi va maqsadlar belgilab berildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mamlakatimizda Ta’lim sohasida tub burilish borasida qator farmon, qaror va qonunlar qabul qilishning asosiy maqsadi :mamlakatimiz iqtisodiyotini yaxshilash, aholi turmush darajasini va ishlab chiqarish jarayonini takomillashtirishga qaratilganidir. Bu jarayonni amalga oshirishda ta’lim sohasini tubdan isloh qilish, raqabotbardosh malakali kadrlarni yetishtirib chiqarish, xalqaro baholash reyitingida munosib o‘ringa ega bo‘lish orqali erishish mumkindir. Butun dunyoda sodir bo‘lgan Pandemiya sharoitida ta’lim tizimimizda raqamli ta’lim jarayonidagi kamchiliklarimiz yaqqol ko‘zga tashlandi. Bu borada ayniqsa Oliy ta’lim muassasalarida, umumta’lim maktablarida juda ko‘p bo‘shliqlar borligi aynan yuqoridagi fikrimiz isboti bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallash zarur va shartligi, bu yuksalishning eng qisqa yo‘ldan borish imkoniyatini berishi, bugungi kunda korxonalar raqamli texnologiyalardan mutlaqo yiroqda ekanligi alohida ta’kidlanib, raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshirishi, shuningdek ortiqcha xarajatlarni kamaytirishi, natijadorlikni oshirishi, bir so‘z bilan aytganda, odamlar turmushini keskin yaxshilash mumkinligi asoslab berildi.

Iqtisodiyotning barcha sohalarini raqamli texnologiyalar asosida yangilashni nazarda tutadigan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” dasturini ishlab chiqish va joriy etish

vaziflari belgilandi. Bu esa sanoatning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash va raqobatdoshlikni kuchaytirish, sohaga ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, yuqori texnologiyali korxonalar, texnoparklar, ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish, zamonaviy muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini barpo etishga yanada



keng

imkoniyatlar yaratadi. Ta'limda texnologik bilimlarni takomillashtirishda xorij tajribasini kuzatganimizda texnologik bilimlar orqali sanoatni va ijtimoiy sohani rivojlantirilganligini ko'rish mumkin.

O'zbekiston 2000-yillarning boshlaridanoq axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ni rivojlantirish va raqamlashtirishga ustuvor ahamiyat bera boshladi. Jumladan, "2013-2020-yillarda O'zbekiston Respublikasi Milliy axborot-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish kompleks dasturi", "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" hamda "Raqamli O'zbekiston – 2030" va "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"da milliy iqtisodiyot, sanoat va umuman jamiyatda raqamli transformatsiyani amalga oshirishga qaratilgan bir qator chora-tadbirlar ko'zda tutilgan.

Xususan, mamlakatimiz elektron hukumatining asosiy tizimi – Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (my.gov.uz) ishga tushirilgach, ushbu sohada, shuningdek, davlat boshqaruvida yangi texnologiyalarni joriy etish va raqamlashtirishda salmoqli yutuqlarga erishildi. Natijada, 2022-yilning yanvar oyi holatiga ko'ra, davlat xizmatlarining 56 foizi my.gov.uz orqali taqdim etilgan bo'lsa, mazkur elektron hukumat platformasida davlat xizmatlari soni 307 ga yetdi hamda elektron davlat xizmatlaridan 1,3 milliondan ortiq fuqaro foydalangan. Shu bilan birga, O'zbekistonda internetdan foydalanuvchilarning umumiy soni esa joriy yil boshida 27,2 million yetgan.

Bundan tashqari, o'tgan davr mobaynida respublikaning AKT tizimlari va raqamli infratuzilmasini takomillashtirish maqsadida sohaga katta miqdordagi investitsiyalar jalb qilindi. Natijada, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2017-2021 yillarda axborot va aloqa sohasida yalpi qo'shilgan qiymat 2 barobardan ziyod oshib, 2021-yilda 11,8 trillion so'mga (1 milliard AQSh dollaridan ortiq) ga yetdi.

Shuningdek, O'zbekistonda IT-parklar tashkil etilgandan buyon sohadagi eksport hajmi 50 barobar oshdi va 46 million AQSh dollariga yetdi. Parkning doimiy rezidentlari soni 147 tadan 500 taga ko'paydi, 300 dan ortiq yangi kompaniya ochildi hamda 8500 ta yuqori haq to'lanadigan ish o'rni yaratildi. Hozirgi kunda IT-parklarda 11 mingdan ziyod yoshlar faoliyat yuritmoqda. Bir million o'zbek dasturchilari" loyihasi 12 yoshdan oshgan O'zbekiston aholisini bepul masofadan turib o'qitish uchun mo'ljallangan. Loyihaning asosiy maqsadi raqamli texnologiyalar sohasidagi dasturlash ko'nikmalariga ega bo'lgan yangi avlod mutaxassislarini tayyorlashdan iboratdir.

"Bir million o'zbek kodlovchisi" onlayn o'quvlar bo'lib, u yerda har bir o'quvchi yoshlar uezbecoders.uz platformasida mustaqil ravishda materiallarni o'rganadilar, topshiriqlar, laboratoriya ishlarini bajaradilar.

Loyihaning maqsadi: "Bir million o'zbek koderi" loyihasi doirasida maktablarda Udacity platformasini masofadan o'qitish metodikasini joriy etish .



Ta'limni boshqaruv tizimlari (LMS) elektron ta'lim dasturlarini tashkil etuvchi, amalga oshiruvchi hamda o'quvchilarning o'zlashtirish natijalari ustidan nazorat olib borish va ularni saqlab qo'yish imkoniyatini beruvchi onlayn platforma. "Las Virtual" platformalar ular texnologik vosita yoki kompyuter ilovalari bo'lib, ular ta'lim kontekstlarida qo'llab-quvvatlash sifatida xizmat qilish uchun maxsus yaratilgan bo'lib, ular o'zaro ta'sirni, kontentga kirishni, turli vaqt va joylarda maslahatlar berishni osonlashtiradi, kerak bo'lganda sinxron va sinxron tarzda.

Mamlakatimizda optik tolali aloqa liniyalarining umumiy uzunligi 2017 yildan buyon sezilarli darajada o'sdi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ma'lumotiga ko'ra, 2017-2022 yillarda bu ko'rsatkich qariyb 6 barobar oshib, 2022 yilning yanvar oyida optik tolali aloqa liniyalarining jami uzunligi 118 ming kilometrga yetdi. Shuningdek, 2017 yildan boshlab xalqaro ma'lumotlar uzatish tarmog'ining o'tkazuvchanlik qobiliyati 28 martaga o'sib, 64,2 Gbit/s dan 1800 Gbit/s gacha oshdi.

Ta'kidlash joizki, global pandemiya raqamlashtirish va raqamli transformatsiya zaruratini ko'rsatib, IT sohasidagi dolzarb masalalarni bartaraf etish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida O'zbekistonning raqamlashtirish strategiyasi qayta ko'rib chiqildi va takomillashtirildi.

Xulosa

Ta'lim sohasini raqamlashtirish va electron platformalar afzalliklari quyidagilardan iborat:

- OTM faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash;
- oliy ta'lim tizimida o'quv, ilmiy, ma'muriy va moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish;
- oliy ta'lim tizimida byurokratik to'siqlar yuzaga kelishini oldini olish va moliyaviy xarajatlarni qisqartirish;
- OTM, talaba, va ish beruvchi tashkilotlar o'rtasida uzviylikni ta'minlash;
- boshqaruv jarayonlari uchun sarf qilinadigan vaqtni qisqartirish va mehnat samaradorligini oshirish;
- ta'lim jarayoni ishtirokchilari faoliyati samaradorligini monitoring qilish;
- tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish va qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish va tezlashtirish.
- zamonaviy raqamli texnologiyalar va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash, bu borada pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish;
- ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish asosida individuallashtirish;
- texnologik ta'lim bo'yicha elektron o'quv adabiyotlarni mobil uskunalariga yuklab va ko'chirib olish maqsadida QR-kod yordamida fanlar kesimida o'quv metodik majmualar haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish;
- nazariy va amaliy mashg'ulotlarni onlayn kuzatish va o'zlashtirish imkonini beruvchi, shuningdek ularni elektron axborot saqlovchilarga yuklovchi



platformalardan (Hemis, Moodle kabi) hamda ta'lim jarayonlarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish;

- masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi elektron kutubxona tizimiga texnologik ta'lim tizimi bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv-metodik majmualarni, elektron ta'lim ruzurklarini joylashtirish hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

- texnologik ta'limning o'ziga xosligidan kelib chiqib, ta'lim jarayonida xalqaro miqyosda keng qo'llaniladigan zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanishni rivojlantirish. O'zbekiston o'z oldiga kuchli demokratik, ilg'or rivojlangan davlatlar safidan mustahkam o'rin egallashni maqsad qilgan. Dunyoning rivojlangan 50 mamlakati qatoriga kirish — bosh vazifa. Bu boradagi islohotlar esa xalqimizga munosib sharoit yaratib berish maqsadida amalga oshirilyapti

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 –son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabedagi PF 6079 sonli "Raqamli O'zbekiston 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi farmoni
4. Mavlonova R.A., Rahmonqulova N.H., Matnazarova K.O., Xolmatov P.Q., Shirinov M.K. Umumiy pedagogika. Toshkent. Navro'z. 2016. 496 b. 115-b
5. Orishev J.B. Raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayonini tashkil etishdagi o'rni // Ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalari" mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Jizzax 23 aprel. 2021 y. B. 167-170
6. Raximqulova, M. (2021). TA'LIMGA INNOVATSION YONDASHUV–O'QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 118-121.